


Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi. 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida tumanda jami 447,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,6 % ni tashkil etgan. SHuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi 77,5 % ni tashkil etdi.

2021 yil 1 oktabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar 2 543,8 ming so'm (2020 yilning mos davriga nisbatan 115,5 %) ni tashkil etgan.

Uchqo'rg'on tuman statistika bo'limi.